

**JINOIY JAVOBGARLIKDAN OZOD QILISHDA AMALDA PUSHAYMONLIK INSTITUTINING JINOIY-HUQUQIY TAHLILI**

Xo'Jayeva Nurjahon Mirzaabdulloyevna  
O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish  
akademiyasi , magistratura bosqichi tinglovchisi  
E-mail: nurjahonxujaeva46@gmail.com

**ANNOTATSIYA**

Maqolada O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqida jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning muhim asoslaridan biri bo'lgan amalda pushaymonlik institutining nazariy va amaliy mazmuni yoritiladi. Institutning huquqiy tabiati, qo'llash shartlari, obyektiv va subyektiv belgilari, boshqa jinoiy-huquqiy institutlar bilan o'zaro farqlari tahlil qilinadi. Sud-amaliy jarayonida uchraydigan asosiy muammolar ilmiy asosda ko'rib chiqiladi va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar beriladi. Tadqiqot natijalari amalda pushaymonlik institutini takomillashtirish, uni jinoiy adliya tizimida insonparvarlik va restorativ adolat tamoyillarini ro'yobga chiqaruvchi samarali mexanizmga aylantirish zarurligini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** Jinoyat huquqi, jinoiy javobgarlikdan ozod qilish, amalda pushaymonlik, jinoyat subyekti, zarar, restorativ adolat.

Ходжаева Нуржаҳон Мирзаабдуллоевна  
Магистрант Академии правоохранительных  
органов Республики Узбекистан.  
e-mail: nurjahonxujaeva46@gmail.com

**АННОТАЦИЯ**

В статье проводится анализ института деятельного раскаяния как основания освобождения от уголовной ответственности в уголовном законодательстве Республики Узбекистан. Рассматриваются правовая природа деятельного раскаяния, условия и критерии его применения, объективные и субъективные признаки, а также отличие от смежных институтов уголовного права, таких как примирение сторон, амнистия и смягчающие обстоятельства. На основе изучения судебно-следственной практики выявлены ключевые проблемы правоприменения: неоднородность судебной практики, сложность оценки искренности раскаяния, риск формального применения нормы. Предлагаются конкретные направления совершенствования регулирования деятельного раскаяния в контексте гуманизации уголовного права и развития восстановительного правосудия.

**Ключевые слова:** уголовное право, освобождение от ответственности, деятельное раскаяние, субъект преступления, возмещение ущерба, восстановительное правосудие.

Khujayeva Nurjakhon Mirzaabdulloyevna  
Master's degree student at the Academy of Law  
Enforcement of the Republic of Uzbekistan.  
E-mail:nurjahonxujayeva46@gmail.com

## **ABSTRACT**

The article examines the institution of active repentance as a ground for exemption from criminal liability under the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan. The research analyzes its legal nature, conditions of application, and the objective and subjective elements that constitute active repentance. Particular attention is paid to distinguishing this institution from related legal mechanisms such as reconciliation between the parties, amnesty, and mitigating circumstances at the sentencing stage. Based on the study of judicial and investigative practice, several challenges are identified, including inconsistency in judicial approaches, difficulties in assessing the genuineness of remorse, and the risk of merely formal application of the norm. The article concludes with a set of proposals aimed at improving the effectiveness of active repentance as an instrument of humanization and restorative justice within the criminal law system.

**Keywords:** criminal law, exemption from liability, active repentance, offender, damage compensation, restorative justice.

## **KIRISH**

Jinoiy javobgarlik institutining maqsadi faqat shaxsni jazolash bilan cheklanib qolmaydi. U shaxsni ijtimoiy foydali hayot tarziga qaytarish, jinoyat sodir etish sabablarini bartaraf etish va kelgusida yangi jinoyatlarning oldini olishga xizmat qilishi lozim. Shuning uchun jinoyat huquqida nafaqat jazo, balki shaxsni jinoiy javobgarlikdan ozod qilishga oid insonparvar institutlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va Jinoyat kodeksida shaxsning qadr-qimmatini, insonparvarlik, adolat, huquqiylik tamoyillari ustuvor ekani e'tirof etilgan [1, 2]. Ushbu tamoyillarni ro'yobga chiqarishga xizmat qiluvchi institutlardan biri – amalda pushaymonlik asosida jinoiy javobgarlikdan ozod qilish mexanizmidir. Mazkur institut orqali, bir tomondan, jinoyat oqibatlarini bartaraf etilishi, jabrlanuvchi va davlat manfaatlarini tiklanishi, ikkinchi tomondan, shaxs jazolashga muqobil tarzda tarbiyaviy va profilaktik ta'sirga duchor bo'lishi ta'minlanadi.

Maqolaning maqsadi – amalda pushaymonlik institutining jinoiy-huquqiy tabiati, qo'llanish shartlari va chegaralarini tahlil qilish, uni boshqa o'xshash institutlardan farqlash hamda sud-amaliyot nuqtai nazaridan mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot predmeti O'zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligi, sud va tergov amaliyoti, shuningdek, jinoyat huquqi nazariyasi doirasidagi ilmiy qarashlar hisoblanadi [4–7].

Amalda pushaymonlik – shaxs tomonidan jinoyat sodir etilgach, o'z xatti-harakatlarining noto'g'riligini anglab, jinoyat oqibatlarini bartaraf etishga, tegishli organlar bilan hamkorlik qilishga qaratilgan ixtiyoriy va faol harakatlar majmuasidir. Jinoyat qonunchiligida ushbu institut shaxsni ma'lum shartlar ostida jinoiy javobgarlikdan ozod qilish asoslaridan biri sifatida mustahkamlangan [2].

Pushaymonlik avvalo axloqiy va diniy kategoriya sifatida vujudga kelgan bo'lib, turli sivilizatsiyalarning diniy manbalarida qilgan gunohidan chin dildan pushaymon bo'lish, zararni qoplash va kechirim so'rash shaxsga nisbatan rahm-shafqat ko'rsatishning asosiy shartlaridan biri sifatida talqin qilingan.

Bu g'oya keyinchalik huquqiy normalarda, xususan, jinoyat huquqida ifodasini topgan. Zamonaviy kriminologik tadqiqotlarda pushaymonlik, ayb va uyat hissi o'rtasidagi farqlar ham ko'rsatib beriladi; ayniqsa, pushaymonlik konstruktiv ruhiy holat sifatida qayta ijtimoiylashuvga ko'proq ijobiy ta'sir ko'rsatishi ta'kidlanadi.

Ushbu institutni qo'llashda

Mazkur institutning huquqiy tabiati bir nechta jihatda namoyon bo'ladi:

– birinchidan, amalda pushaymonlik jinoyat sodir etilganligini yo'qqa chiqarmaydi, balki sodir etilgan jinoyat faktiga qaramay, shaxsning keyingi ijobiy xulq-atvorini inobatga olgan holda unga nisbatan jinoiy javobgarlikni qo'llamaslik imkonini beradi;

– ikkinchidan, mazkur institut "jazolamasdan tarbiyalash" tamoyilini ifodalaydi, ya'ni davlat shaxsni jazolash o'rniga, uning ixtiyoriy ravishda jinoyat oqibatlarini bartaraf etganini, jamiyat uchun foydali harakatlar qilganini rag'batlantiradi [4,5];

– uchinchidan, amalda pushaymonlik jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning shaxsga xos asosidir. U umumiy amnistiya yoki afv aktlaridan farqli ravishda individual xulq-atvoriga bevosita bog'liqdir.

Nazariy jihatdan amalda pushaymonlik institutining ildizlari klassik jinoyat huquqi ta'limotidagi "jazolash maqsadlari", "preventsion" va "restorativ adolat" g'oyalariga borib taqaladi [4,5,8]. Aytilganidek, davlat faqat repressiv choralar bilan emas, balki ijobiy rag'batlar orqali ham jinoyatchilikka qarshi kurashishi lozim.

### **AMALDA PUSHAYMONLIKNING OBYEKTIV VA SUBYEKTIV BELGILARI**

Amalda pushaymonlik instituti o'z xususiyatiga ko'ra obyektiv va subyektiv belgilarga ega bo'lib, mazkur belgilar asosidan institutning qo'llanilish talablaridan kelib chiqadi. Endi ushbu belgilarga birma-bir to'htalib o'tamiz. Institutning obyektiv belgilari shundan iboratki, amalda pushaymonlik obyektiv tomondan shaxs tomonidan sodir etilgan konkret harakatlar bilan ifodalanadi. Jinoyat qonunchiligida, odatda, quyidagi obyektiv elementlar ko'rsatiladi:

– jinoyat sodir etilgani to'g'risida ixtiyoriy ravishda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga xabar berish;

– jinoyatni fosh etishga faol yordam ko'rsatish (jinoyat qurollarini, ashyoviy dalillarni ko'rsatish, sheriklarni fosh etish, jinoyat usulini bayon qilish va boshqalar);

– jabrlanuvchiga yetkazilgan moddiy va ma'naviy zararni qoplash, jinoyat oqibatlarini iloji boricha bartaraf etish (o'g'irlangan mulkni qaytarish, davolash xarajatlarini qoplash va h.k.) [2; 7].

Bu harakatlar real, konkret va tekshiriladigan bo'lishi zarur. Shunchaki "pushaymonman" degan bayonotning o'zi yetarli emas. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar shaxsning qilmishidan ko'rilgan zararni bartaraf etishga qanchalik hissa qo'shganini, jinoyatni fosh etishga qanchalik yordam berganini aniqlashi lozim. Shuningdek, subyektiv belgilari bu amalda pushaymonlikning subyektiv tomoni shaxsning ichki ruhiy kechinmalari va qilmishga bo'lgan munosabatidagi o'zgarishlar bilan bog'liq. Bu yerda quyidagi elementlar muhim:

– qilgan ishining ijtimoiy xavfini va noqonuniyligini anglash;

– jabrlanuvchiga va jamiyatga yetkazilgan zarar uchun chin ko'ngildan afsuslanish;

– kelgusida bunday qilmishlarni takrorlamaslikka qat'iy ichki qaror qabul qilish [6–8].

Sud va tergov organlari subyektiv belgilarning mavjudligini baholashda faqat so'z va yozma tushuntirishga tayanib qolmay, balki shaxsning keyingi xulq-atvorini, zararni qoplashga bo'lgan

munosabatini, jamiyatga foydali faoliyatini ham hisobga oladi. Yuqori darajada formal yondashuv bu institutning tarbiyaviy va profilaktik salohiyatini pasaytiradi.

### **AMALDA PUSHAYMONLIK INSTITUTINING QO‘LLANISH SHARTLARI VA CHEGARALARI.**

Amalda pushaymonlik asosida jinoiy javobgarlikdan ozod qilish, odatda, quyidagi shartlar majmuasi asosida qo‘llanadi:

- jinoyat ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan yoki uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyatlar toifasiga mansub bo‘lishi;
- shaxs jinoyatni birinchi marta sodir etgan bo‘lishi; takroriylik, odat tusiga kirganlik, xavfli retsidiv holatlarida mazkur institut, qoida tariqasida, qo‘llanilmaydi;
- shaxs jinoyat sodir etilgandan so‘ng o‘z ixtiyori bilan pushaymon bo‘lib, jinoyatni fosh etish va zararni qoplashga qaratilgan faol harakatlarni amalga oshirishi;
- shaxsni jinoiy javobgarlikdan ozod qilish jamiyat uchun xavf tug‘dirmasligi, aksincha, uni ijtimoiy foydali yo‘lga yo‘naltirishga xizmat qilishi lozim [2; 7–9].

Ushbu institut ko‘pincha diskretion xarakterga ega: qonunda “javobgarlikdan ozod qilinishi mumkin” iborasi qo‘llaniladi. Bu tergovchi, prokuror yoki sudga ma‘lum erkinlik beradi, biroq ayni paytda, bixillashtirilgan amaliyot zaruratini ham keltirib chiqaradi. Har bir holatda shaxsning shaxsiy xususiyatlari, jinoyatning xarakteri, sodir etish sharoitlari, oqibatlarini, pushaymonlik darajasi kompleks baholanishi kerak.

Chegaralar masalasida, ayniqsa, og‘ir va o‘ta og‘ir jinoyatlar bo‘yicha amalda pushaymonlik qoidalarini to‘g‘ri talqin qilish muhim. Bunday hollarda amalda pushaymonlik ko‘proq jazoni yengillashtiruvchi holat sifatida e‘tiborga olinishi, biroq jinoiy javobgarlikdan to‘liq ozod qilishga olib kelmasligi mumkin [4; 6].

Amalda pushaymonlik asosida jinoiy javobgarlikdan ozod qilish instituti nafaqat O‘zbekiston, balki ko‘plab xorijiy davlatlar, xususan Rossiya Federatsiyasi jinoyat qonunchiligida ham mavjud bo‘lib, u yerda “deyatelnoe raskayanie” (faol pushaymonlik) atamasi bilan ifodalanadi. Ushbu institutning mazmun-mohiyatini qiyosiy-huquqiy tahlil qilish, bir tomondan, milliy qonunchilikdagi yechimlarning qanchalik zamonaviy ekani va xalqaro tendensiyalarga qay darajada mos kelishini aniqlashga, boshqa tomondan esa takomillashtirish yo‘nalishlarini asoslashga xizmat qiladi.

Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksining 75-moddasida faol pushaymonlik asosida jinoiy javobgarlikdan ozod qilishning umumiy asoslari belgilangan. Mazkur moddaning birinchi qismiga ko‘ra, kichik yoki o‘rtacha og‘irlikdagi jinoyatni **birinchi marta** sodir etgan shaxs, agar jinoyat sodir etilganidan keyin ixtiyoriy ravishda aybiga iqror bo‘lib kelgan bo‘lsa, jinoyatni ochish va tergov qilishga ko‘maklashgan bo‘lsa, yetkazilgan zararni qoplagan yoki boshqa tarzda zararni qoplash choralarini ko‘rgan bo‘lsa hamda natijada o‘zining ijtimoiy xavfliligini yo‘qotgan bo‘lsa, jinoiy javobgarlikdan ozod qilinishi **mumkin**[12].

Jinoiy javobgarlikdan ozod qilish institutida amalda pushaymonlikni boshqa asoslaridan bo‘lgan yarashuv, amnistiya bilan farqlash lozim.

Masalan, yarashuv institutida asosiy urg‘u jabrlanuvchi va aybdorning ixtiyoriy kelishuvi, jabrlanuvchining aybdorni kechirishiga qaratilgan. Zarar ko‘pincha jabrlanuvchining roziligi bilan qoplanadi va uning protsessual pozitsiyasi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi [2; 7].

Amalda pushaymonlikda esa:

- jabrlanuvchining roziligi zarur element sifatida ko‘rsatilmaydi, garchi uning manfaatlarini hisobga olish shart bo‘lsa-da;

– asosiy mezon – shaxsning davlat va jamiyat manfaatlarini yoʻlida faol harakatlari, jinoyatni fosh etishdagi hisssasi;

– institutning maqsadi nafaqat jabrlanuvchini qanoatlantirish, balki jinoyatga qarshi kurash samaradorligini oshirishdan iborat.

Shunday qilib, yarashuvda xususiy manfaatlar ustuvor, amalda pushaymonlikda esa jamoat manfaatlarini ustunlik qiladi.

Endi amalda pushaymonlik va amnistiyaning oʻzaro farqini tahlil qilamiz. Amnistiya – vakolatli davlat organi tomonidan qabul qilinadigan normativ-huquqiy akt boʻlib, maʼlum toifadagi shaxslar guruhiga nisbatan qoʻllaniladi. U shaxsning individual xulq-atvori bilan har doim ham bogʻliq boʻlmaydi [1; 3].

Amalda pushaymonlik esa:

– konkret shaxsga nisbatan, uning shaxsiy xulq-atvori va pushaymonlik darajasiga koʻra qoʻllaniladi;

– individual xarakterga ega, jamoaviy emas;

– shaxsning faol, ixtiyoriy va foydali harakatlari mavjud boʻlgan taqdirdagina qoʻllanadi.

Baʼzi holatlarda amalda pushaymonlik, zararni qoplash, jinoyatni fosh etishga yordam berish kabi elementlar sud tomonidan jazoni yengillashtiruvchi holat sifatida baholanishi mumkin. Biroq bunday paytda:

– jinoyatning ogʻirligi, boshqa muhim holatlar (takroriylik, oqibatlar ogʻirligi) sababli shaxsni umuman javobgarlikdan ozod qilish maqsadga muvofiq deb topilmasligi mumkin;

– amalda pushaymonlik institutining barcha shartlari toʻliq mavjud boʻlmasligi ehtimoli bor [4; 8; 9].

Demak, amalda pushaymonlik institutining qoʻllanilishi egiluvchan boʻlib, u baʼzan jinoyat javobgarlikdan butunlay ozod qilishga, baʼzan esa faqat jazoni yengillashtirishga xizmat qilishi mumkin.

Tahlil etilayotgan institut tergov va sudning ish hajmini kamaytirish, shartlar bajarilgan javobgarlikdan ozod qilish jinoyat sodir etgan shaxsning jamiyatga qayta moslashishida muhim samaraga ega boʻlib, boshqa jihatdan amalda pushaymonlik institutini qoʻllash jarayonida sud va tergov amaliyotida bir qator muammolar kuzatilishini inkor etib boʻlmaydi. Jumladan:

– “chin koʻngildan pushaymonlik” mezonining baholanishidagi subyektivlik. Turli sudlar bir xil holatni turlicha talqin qilishi, bu esa amaliyotda bir xillik yetishmasligiga olib kelishi mumkin;

– zararning qoplangan-qoplanmaganini baholashda yondashuvlarning turlicha boʻlishi. Baʼzan zarar qisman yoki boʻlib-boʻlib qoplanganligi sababli amalda pushaymonlikni tan olish masalasida bahslar kelib chiqadi;

– jinoyatni fosh etishga “faol yordam” mezonini oʻlchashdagi murakkablik. Masalan, faqat jinoyat joyini koʻrsatish bilan cheklanadigan shaxsni faol yordam koʻrsatgan deb baholash mumkinmi yoki yoʻq, masala ochiq qolmoqda;

– institutdan suiisteʼmol qilish xavfi. Ayrim hollarda shaxslar faqat jazo choralarini yengillashtirish yoki javobgarlikdan qochish maqsadida tashqi koʻrinishda pushaymonlik namoyish qilishi, amalda esa jinoyatga boʻlgan munosabatini oʻzgartirmagan boʻlishi mumkin [8; 9].

Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun normativ aniqlikni oshirish, sudlar uchun tushuntiruvchi Plenum qarorlari va metodik tavsiyalar ishlab chiqish, amaliyot monitoringini yoʻlga qoʻyish zarur.

Normani sharhlash davomida olib borilgan tadqiqot natijalariga koʻra, quyidagi yoʻnalishlarda islohot va takomillashtirish zarur deb hisoblaymiz.:

1. Normativ aniqlikni oshirish. “Chin koʻngildan pushaymonlik”, “faol yordam”, “zararni qoplash” kabi kategoriyalarni sharhlovchi qoʻshimcha izohlar, Plenum qarorlari va uslubiy koʻrsatmalar ishlab chiqish va eʼlon qilish.

2. Sud amaliyotini birxillashtirish. Oliy sud tomonidan tipik ishlar misolida sudlar uchun yo'riqnomaviy tushuntirishlar tayyorlash, jinoyat ishlari bo'yicha amaliyot obzorlarini muntazam e'lon qilish [3].
3. Jabrlanuvchi manfaatlarini kuchaytirish. Amalda pushaymonlikni qo'llashda jabrlanuvchining pozitsiyasini majburiy ravishda inobatga olish, zararning haqiqatan ham qoplanganligini huquqiy jihatdan ishonchli tasdiqlash talabini kuchaytirish.
4. Restorativ adolat elementlarini joriy etish. Amalda pushaymonlikni faqat jinoiy-huquqiy kategoriya sifatida emas, balki jabrlanuvchi, aybdor va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni tiklashga xizmat qiluvchi restorativ mexanizm sifatida talqin qilish; zarur hollarda mediatorlar ishtirokini ta'minlash [5; 8].
5. Kriminologik monitoring. Amalda pushaymonlik asosida jinoiy javobgarlikdan ozod qilingan shaxslar o'rtasida qayta jinoyat sodir etish darajasini muntazam o'rganish, natijalarga ko'ra qonunchilik va amaliyotga tuzatishlar kiritib borish.

## XULOSA

Amalda pushaymonlik institutining jinoiy-huquqiy ahamiyati shundaki, u jinoyat sodir etgan shaxsni to'liq repressiv choralar qo'llamasdan turib, uni jamiyatga qaytarish va jinoyat oqibatlarini bartaraf etishga rag'batlantirish imkonini beradi. Mazkur institut jinoyat huquqining insonparvarlik va adolat tamoyillarini amaliyotga tatbiq etishning muhim mexanizmi bo'lib xizmat qiladi.

**Olib borilgan tahlillar natijasida ushbu institutga quyidagicha maulliflik tarifi beriladi: aybdorning o'z qilmishiga amalda pushaymon bo'lishi asosida javobgarlikdan ozod qilish instituti** – bu jinoyat huquqining shunday rag'batlantiruvchi va tiklovchi xarakterdagi instituti bo'lib, unga ko'ra ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan yoki uncha og'ir bo'lmagan jinoyatni birinchi marta sodir etgan shaxs jinoyat sodir etilgandan keyingi davrda ixtiyoriy ravishda aybini tan olishi, jinoyat oqibatlarini bartaraf etishi, yetkazilgan moddiy va ma'naviy zararni qoplashi, jabrlanuvchi bilan yarashishga intilishi hamda jinoyatni ochishda faol yordam ko'rsatishi tufayli uning shaxsiy ijtimoiy xavfliligi va qilmishining ijtimoiy xavfi sezilarli darajada kamaygan deb baholanadi va natijada sud yoki prokuror tomonidan unga nisbatan jinoiy javobgarlikni qo'llash maqsadga muvofiq emas, deb topilib, jinoiy javobgarlikdan ozod qilinadi.

Ya'ni qisqa bilib aytganda, amalda pushaymonlik asosida javobgarlikdan ozod qilish – bu shunday huquqiy institutki, unda birinchi marta nisbatan yengilroq jinoyat sodir etgan shaxsning jinoyatdan keyingi ixtiyoriy, ijobiy xatti-harakatlari (jinoyatni ma'lum qilishi, zararni qoplashi, jabrlanuvchi bilan mediatsiya kelishuvini bajarishi va jinoyatni ochishda yordam ko'rsatishi) davlat organlari tomonidan uning ijtimoiy xavfliligini sezilarli darajada kamaytiruvchi omil sifatida e'tirof etilib, jinoiy javobgarlikni qo'llashdan voz kechish uchun asos bo'ladi.

Aybdor o'z qilmishiga amalda pushaymon bo'lganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish instituti zamonaviy jinoyat siyosatida ikki tomonlama vazifani bajaradi: bir tomondan, individni ijtimoiy foydali hayotga qaytarish va uning ijobiy xulqini rag'batlantirish, ikkinchi tomondan esa, jabrlanuvchi manfaatlarini tiklash orqali adolat tuyg'usini qaror toptirishga yordam beradi. Ilg'or xorijiy davlatlar tajribasi mazkur institutni aniq normativ mezonlar, sud amaliyotini yo'naltiruvchi sharhlar va restorativ adolat g'oyalari bilan uyg'unlashtirish uning samaradorligini sezilarli darajada oshirishini ko'rsatmoqda.

O'zbekiston qonunchiligini takomillashtirish nuqtai nazaridan, birinchidan, "amaliy pushaymonlik" tushunchasining huquqiy mazmunini aniq belgilash; ikkinchidan, institutning qo'llanish sohasi va

chegaralarini jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasi va jabrlanuvchi manfaatlari bilan uyg'unlashtirish; uchinchidan, jinoyat-protsessual tartibni takomillashtirish hamda jabrlanuvchining huquqiy maqomini mustahkamlash zarur. Shuningdek, Oliy sud Plenumi qarorlari, metodik tavsiyalar va o'quv dasturlari orqali huquqni qo'llash amaliyotida yagona yondashuvni shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Natijada, pushaymonlik asosida javobgarlikdan ozod qilish institutini kompleks tarzda rivojlantirish inson huquqlari ustuvorligi, adolat va qonuniylik prinsiplari bilan uyg'un holda jinoyat siyosatini liberallashtirish, jamiyatda huquqiy ishonch va barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, amalda pushaymonlik institutining samaradorligi bir qator omillarga bog'liq: normativ tartibga solishning aniqligi, sud va tergov amaliyotining birxilligi, jabrlanuvchi manfaatlarining yetarli darajada hisobga olinishi, shuningdek, restorativ yondashuv elementlarining tizimga integratsiyalashganlik darajasi. Shu bois, mazkur institutni takomillashtirish bo'yicha taklif etilgan chora-tadbirlar jinoyatchilikka qarshi kurash samaradorligini oshirishga, shaxsni qayta ijtimoiylashtirish jarayonini kuchaytirishga xizmat qiladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: Adolat, 2023. URL: <https://lex.uz/docs/-6445145>
2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2024. URL: <https://lex.uz/mact/-111453>
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 30.04.1999 yildagi 6-son qarori. – Toshkent, 2022. URL: <https://lex.uz/uz/docs/-7469894?ONDATE2=16.12.2024&action=compare>
4. Ashworth, A. Principles of Criminal Law. – 9-th ed. – Oxford: Oxford University Press, 2019. URL: [https://books.google.co.uz/books/about/Ashworth\\_s\\_Principles\\_of\\_Criminal\\_Law.html?id=Wt-RDwAAQBAJ&redir\\_esc=y](https://books.google.co.uz/books/about/Ashworth_s_Principles_of_Criminal_Law.html?id=Wt-RDwAAQBAJ&redir_esc=y)
5. Fletcher, G. Rethinking Criminal Law. – Oxford: Oxford University Press, 2000. URL: [https://books.google.co.uz/books/about/Rethinking\\_Criminal\\_Law.html?id=lsnomFVuka8C&redir\\_esc=y](https://books.google.co.uz/books/about/Rethinking_Criminal_Law.html?id=lsnomFVuka8C&redir_esc=y)
6. Козаченко, И. Я. Уголовное право. Общая часть. – М.: Норма, 2015. URL: <https://urait.ru/book/ugolovnoe-pravo-obschaya-chast-558681>
7. Рахимов, Б. Жиноят ҳуқуқи. Умумий қисм. – Тошкент: ТДЮУ нашриёти, 2021. URL: <https://library.tsul.uz/uz/books/5181>
8. Karimov, S. Active repentance as a restorative mechanism in criminal law // International Journal of Criminal Justice Studies. 2022. Т. 14, № 2. – С. 45–57.
9. Kurbanov, D. Comparative analysis of exemption from criminal liability in Central Asian criminal legislation // Journal of Legal Reform. – 2023. – Т. 9, № 1. – С. 88–102. URL: <https://inlibrary.uz/index.php/tajpslc/article/view/6932>
10. Rossiya Jinoyat kodeksi. 75-m. URL: [https://www.consultant.ru/document/cons\\_doc\\_LAW\\_10699/2ba2a1c7f4543c624328bd19c1c703a7056a3b2f/](https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_10699/2ba2a1c7f4543c624328bd19c1c703a7056a3b2f/)
11. www.lex.uz